

MAVZU :ILK YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMY O'YIN VA MASHG'ULOTLAR VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Mamatqulova Nozimaxon

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogik fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2- bosqich talabasi

Anatatsiya. Ta'limiy o'yin va mashg'ulotlarning bolalar hayotida qanday o'rin tutishi va ularning tarbiya usullariga ko'rsatadigan ta'siri. Mashg'ulotlarning nutq o'stirishdan ahamiyati haqida bayon etiladi.

Kalit so'zlar. O'yin, mashg'ulot, tarbiya, tarbiyachi, nutq, faoliyat, ta'limiy talablar, bilim, malaka.

Mamlakatimizda Maktabgacha Ta'lim Vazirligi tashkil topgandan s'ong maktabgacha ta'lim tashkilotlariga alohida e'tibor berila boshlandi.

Ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalarini tarbiyalanuvchilar bilan keng qamrab olish y'olga q'oyildi va bu muassasalar tarmog'ini kengaytirish chora tadbirlari ishlab chiqildi. Bolalarning bu muassasaga borishi ularning ta'lim va tarbiyasiga, komil inson sifatida voyaga yetishiga keng imkoniyatlar ochib berdi, ya'ni bunda bolalar boshlang'ich savodni maktabgacha ta'lim muassasalarida olishadi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020yildagi 22 dekabrdaqi O'RQ "802" sonli Davlat standartida ham quyidagilar keltirib o'tilgan, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'laqonli va xavfsiz ovqatlanishtirishni tashkil etishga bo'lgan gigiyenik talablarga rioya etish, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini o'yinlar to'plami, o'yinchoqlar, mebellar, jihozlar va boshqa texnik vositalar bilan jihozlash. ta'lim tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish va davlat standartining maqsadini oladigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asosan tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk inson qilib voyaga yetkazish hisoblanadi. bularning barchasi davlat ta'lim standartida keltirib o'tilgan. Kichkintoy uchun ta'lim shakllaridan biri bu ta'limiy o'yinlar.

Ta'limiy o'yin shakli ilk yosh davrida asosiy usul hisoblanadi.

Tarbiyachi bolalarga mo'ljallagan o'yin va mashg'ulotlarida bolalar ta'lim va tarbiya jarayonini tez o'zlashtirib olishadi.

Bu bolalar bog'chasida olib boriladigan o'yin va mashg'ulotlar bolalarning idrokini rivojlantiradi va ular o'zlarining yoshiga mos bo'lgan ma'lumotlarni beradi, ayrim sifatlarni va malakalarni shakllantiradi. Tarbiyachi ta'limiy o'yin va mashg'ulotlarni

"Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi " asosida rejalashtiradi.

Tarbiyachi har bir o'tayotgan o'yin va mashg'ulotlarida bolalarni

qiziqtirishi lozim. Bolalarda olib boriladigan ta'limiy o'yin va mashg'ulotlar

ularning aqliy va axloqiy tarbiyalariga o'zining katta ta'sirini ko'rsatadi.

Bolalarga mo'ljallangan o'yin va mashg'ulotlar ularning yoshiga va guruhiga mos bo'lishi kerak. Shunda ularning ta'limiy o'yin va mashg'ulotlarga qiziquvchanlik faoliyati ortadi. Shuni esda tutish kerakki, mashg'ulotlar bolalarda yaxshi kayfiyatni vujudga keltirishi lozim. Ta'limiy o'yinlar va mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishi va nutqni rivojlantirishga oid vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida tarbiyachi ta'limiy talablarga amal qilishi zarur. Agar ta'limiy o'yin va mashg'ulotlar reja asosida tashkil etilsa, yaxshi natijalarga erishiladi. Tarbiyachi oldindan

" Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi "dan nutqni rivojlantirishga

taalluqli bo'lgan bo'limni yaxshi o'rganib olishlari shart. Chunki bu bo'limni o'rganish bolalarning nutqini o'stirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar nutqini o'stirishning asosiy maqsadi bolalarda og'zaki nutqini rivojlantirish.

vazifalari esa bir nechta. Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi "da ilk yoshdagi bolalar nutqini o'stirishga doir vazifalarni amalga oshirish uchun turli o'yin va mashg'ulotlar o'tkazish taklif etiladi. Bu o'yin mashg'ulotlarida o'yinchoqlar, suratlar, tevarak atrofdagi buyumlardan keng foydalaniladi. Bolalarni buyum va o'yinchoqlar bilan tanishtirishda oddiydan murakkabga tomon boriladi. Ya'ni bunda ular birinchi predmetlarni bilib olishadi keyin ularning nomini aytishadi va ular bilan turli harakatlarni bajarishni o'rganib olishadi. Dasturda olib boriladigan ish vazifalari va mazmunning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida mashg'ulotlarni takrorlash talab etiladi. Mashg'ulotlarda hosil qilingan bilim va malakalarni mustahkamlash uchun takrorlanib turishi darkor. Agar bolalarda takrorlash natijasida ham o'zlashtirishi past bo'lgan bolalar bo'lsa ular bilan yakkama-yakka tarzida ish olib boriladi. Ta'limiy prinsiplardan biri bu ko'rsatmalilikning so'z bilan mos kelishi. Ya'ni bunda bolalarga tushuntiradigan har bir narsa ko'rgazma asosida tashkil etilsa bolalarning anglab olishi ham osonlashadi. Mashg'ulotlar va o'yinlar kundalik tartibda, nonushtadan keyin, ertalabki soatda, sayr vaqtida, kunduzgi uyqudan keyin bolalar ovqatlanib bo'lgach, kunduzgi ikki marta uxlaydigan kichkintoylar bilan ikkinchi chiniqtirish vaqtida shug'ullaniladi. Mashg'ulotning davomiyligini oladigan bo'lsak, mashg'ulotning qancha davom etishi bolalarning mashg'ulotdagi faolligiga va emotsional holatiga bog'liq. Agar mashg'ulot davomida ular harakatlanish imkoniyatiga ega bo'lsa, mashg'ulotni 8-10 daqiqa davom ettirish mumkin. Agar tarbiyachi bolalarda charchoq alomatlarini sezsa mashg'ulotni tugallashi va bolalarga erkin harakat qilish, o'ynash imkonini berish kerak. Bolalar bog'chasida hali jamoa hayotiga o'rganmagan yoki sharoitga sekinlik bilan moslashadigan bolalar bo'lishadi. 1 yoshdan 1 yosh - u 6 oylikkacha bo'lgan bolalarda birlashib faoliyat ko'rsatish malakasi hali rivojlanmagan bo'ladi. Shuning uchun yilning boshida mashg'ulotlar yakkama-yakka tarzda olib boriladi. Bolalar ikki va ikki yarim yashar bo'lganlarida bir birlaridan ancha farq qiladilar, ularning rivojlanish darajalari, bilimlariva o'zlashtirish qobiliyatlari ham har xil bo'ladi. Bolalar

guruhlarga avvalo yoshlariga qarab ajratiladi. Ilk yoshdagi bolalarda hali ixtiyoriy, irodaviy kuch yaxshi rivojlanmagan bóladi, boshqacha qilib aytganda, qiziqish uyg'otmagan narsani bajarishga ózini majbur qilolmaydi. Shuning uchun tarbiyachi bolalardagi bu xususiyatlarni hisobga olgan holda, mashg'ulotlarda bolalar diqqatini óziga tortuvchi, ularda qiziqish uyg'otuvchi tashqi ko'rinishi bilan jozibador bólgan narsa buyumlardan foydalanish kerak. Jumladan rasmlar rangli bólishi, óyinchoqlar butun, sinmagan bólishi kerak. Mashg'ulotlar bir kunda 2 martadan 4 martagacha takrorlash mumkin. Takrorlash dastur mazmunini saqlagan holda, turli kórinishlarda amalga oshiriladi. Masalan " Ajoyib xaltacha " Ta'limiy óyinida bolalarni narsalarning ólchamini, katta kichikligini bilib olishga yordam beruvchi óyin hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda. Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarning komil inson bo'lib voyaga yetishiga ulkan bir zamin yaratadi, bolalarning bog'chada óyin, mashg'ulot orqali olgan ta'lim tarbiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Ularning yoshligida xotirasi juda taraqqiy etgan bóladi va bu xotirani juda keng bilim va kónikmalar bilan boyitib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi.T.: O'qituvchi.1993.
- 2.Sh.A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T.: 2013
- 3.N.M.Kayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T.: 2013
5. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi Toshkent-2018
6. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari.
- 7.ÓRQ „802-son,, Davlat standarti.